# Xalqaro ilmiy aloqalar

2019-yil 18-iyun kuni Xorazm Ma’mun akademiyasiga Afg‘oniston islom Respublikasi Bosh prokurori Muhammad Farid Hamidi boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. Tashrif davomida Muhammad Farid Hamidi boshchilik delegatsiya Xorazm Ma’mun akademiyasining “Xorazm tarixi va madaniyati” ekspozitsion muzeyi va bu yerda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan tanishdilar.





Uchrashuv yakunida janob Hamidi samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, Afg‘onistondagi ilmiy tadqiqot markazi, Fanlar akademiyasi va universitetlariga Xorazm Ma’mun akademiyasida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar to‘g‘risida gapirib, ular bilan bog‘lanish zarurligini ta’kidlab o‘tdi.



